

## BO'LAJAK TEKNOLOGIYA O'QTUCHILARI KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.

*Ochilov Ulug'bek Musurmon o'g'li*

*Mirzobod tumani 3-maktab o 'qituvchisi*

*Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li*

*Guliston davlat pedagogika universiteti, stajyor o 'qituvchi*

**Annotatsiya:** Maqolada mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kreativligini shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mutaxassislik, fan, o'qitish, jarayon, texnologiya, o'qituvchi, kreativlik, shakllantirish.

**Annotatsiya:** V state rassmatrivayutsya voprosy formirovaniya tvorcheskix sposobnostey buduščix uchiteley texnologiy pri prepodavanii predmetov spetsialnosti.

**Klyuchevыe slova:** spetsialnost, nauka, obuchenie, protsess, texnologiya, pedagog, tvorchestvo, sheyping.

**Annotation:** The article addresses the issues of shaping the creativity of future Technology teachers in the teaching of specialty subjects.

**Keywords:** Specialty, science, teaching, process, technology, teacher, creativity, shaping.

Kreativlilik (lot., ing. Create-yaratish. Creative-yaratuvchi, ijodkor)-individning yangi g'oyalarini ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsda kreativlik (ijodkorlik) sifatlarini rivojlanirish tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi.

Ijodkorlik qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi va o'z navbatida ichki sezgini rivojlaniradi. Ijodkorlik qobiliyati, ichki sezgi va umumiy intellect kesishganda





ijod mahsuli yaratiladi. Bu borada mutaffakir Abu Ali ibn Sino qarashlarida ham kreativlikni talqin etishimiz mumkin. Uning qarashlarida o'qituvchi o'quvchilarining mayl, intilish, faolligi, qobiliyat, istedodi va layoqatlarini inobatga olisi lozim. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kreativligini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziyani o'z ichiga qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi.[4]

Ana shu nuqtai-nazardan ilg'or kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarida mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Mutaxassislik fani darslarida ta'lim tamoyillaridan foydalanib bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarida ijodkorlik faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1.Ta'lim-tarbiya jarayonlarini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish. Unda, ta'lim berish jarayonida, jamiyat qonuniyatlarini ijtimoiy tarixiy taraqqiyotining ongli sur'atda tushuntirish orqali bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini yakka holdagi rivojlanish omillarga tayanish. Ta'lim jarayonidagi ikki jihat omilga; tashqi tasvirlar va ichki imkoniyatlarni, ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchlarni sifatida hisobga olgan holda talabalarni bilish faoliyatlarini tashkil etish bosqichlariga tayanish lozim.

2.Mutaxassislik fanidagi uzviy va uzlusiz kasb-hunar ta'limi tamoyillariga binoan o'qituvchi faoliyatida ta'lim tamoyillarining o'rnini belgilashda



# Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari

talabalarning bilish faoliyatini xususiyatini belgilovchi asosiy bilim berish tamoyillarini asos qilib olish muhim ahamiyatga ega.

3. Mutaxassislik fanining tarbiyaviy xarakteridagi tamoyili tarbiyalovchi ta'limning asosiy qoidalari; dunyoqarashni shakllantirish, ahloqiy sifatlarni va irodani tarbiyalash, tarbiyani shakllantirish, qobiliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

4. Mutaxassislik faninining ilmiylik tamoyillari va jamiyat qonunlariga mos keluvchi, hamda asoslangan bilim-talaba ongini haqqoniy rivojlantirishda yetakchi o'rinni egallaydi. Unda o'quv materialidagi ilmiy qonuniyatlarni aks ettirish, nazariy qoidalarni tushunish-fikrlash faoliyati xarakterini belgilaydi.

5. Mutaxassislik fanining ketma-ketlik tamoyili butun borliqning o'zi ma'lum ketma-ketlik bo'lishini har tomonlama taqazo etadi. Unda ta'lim jarayonida ham ketma-ketlik bo'lishi zarur. Ta'limdagi ketma-ketlikning bo'lishi ma'lumdan noma'lumga, yaqindan-uzoqqa, oson materialdan-qiyin materialni o'zlashtirishga o'tishni taqozo etadi.

6. Mutaxassislik fanining tushunarli bo'lish tamoyili ta'limning talaba yoshlar dunyoqarashi tushunchalariga mosligi, yangi bilimlarni talaba ongidagi bilimlar bilan bog'lab, tushunarli qilib turmush tajribasiga asoslanish, umumiyy saviyani yuqoriga ko'tarish, mavzu materiallarini talaba rivojlanishiga mos bo'lishi bilan amalga oshirish alohida e'tiborga loyiq.

7. Mutaxassislik fanining ko'rsatmalilik tamoyili talabalarga texnika texnologiya tarixini hissiy bilish ko'rsatmali materiallar ko'rsatmalilik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Texnologiya ta'limida o'qituvchining o'zi va amalga oshirgan dars jarayonidagi bilim, ko'nikma va malakalari asosiy ko'rsatma ekanligi, ta'limda yangi texnologiyalarni qo'llashga asos soladi.

8. Mutaxassislik fanida onglik va faollik tamoyili zaminida talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni umumlashtiradi, nazariyalarning aniq qo'llanishi fikr yuritishni ancha aniqlashtiradi.



9.Mutaxassislik fanida mustaqil bilimlar berish tamoyili zaminida, o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalar talaba ongida uzoq vaqt va puxta saqlanishi keyinchalik amaliyotga tadbiq etilishi uchun mustahkam zamin bo'lishi nazarda tutiladi. Mavzu materialidagi asosiy tushuncha qoidalarni bo'rttirish, asosiy fikr talaba bilimlari bilan bog'lanishi, dunyo qarash va e'tiqodlarni shakllantirishga asos soladi.

10.Mutaxassislik fanining alohidalashtirish tamoyili har bir talaba shaxsiy hususiyatlariga qarab alohida yondoshish, dars jarayonida va darsdan tashqari faoliyatlar mazmunida ta'lim tamoyillarini qo'llashdagi o'zaro bog'liqligi, ijobjiy intilishlar hosil qiladi.[5]

Unda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, dasturiy ta'limni hosil qilishga zamin yaratiladi. Ijodkorlik faoliyati turlarini mezonlar asosida xarakterlash-tasniflashdeganda ijodkorlikning turlari, ularning inson faoliyati davomida namoyon bo'lishi, ijodiy kasblari, ijodkorlik faoliyatini belgilovchi omillar, ijodkorlik faoliyatini amalga oshirish metodlari,xususiyatlar va boshqalarni bir tizimga solish tushuniladi.

"Mutaxassislik fani" darslarida talabalarda kreativ sifatlarni shakllantirishda quyidagi xolatlar ta'lim jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

- talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;
- talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslaridan dars jarayonida o'rinali amaliy foydalanish;
- talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish;
- talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalarni ta'lim jarayoniga samarali tadbiq etish;
- "Mutaxassislik fani" darslari jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash;



- talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Yuqoridagi fikrlardan tashqari Mutaxassislik fanlarini o’qitishda fanining metodologik asosi uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi. Mutaxassislik fani va uni o‘qitish metodikasi fanining metodologik asosi uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi, insonlarning olamini hamda o‘zlarini bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo‘lgan va ular o‘ziga xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uning xususiyatlari haqida xolis ma’lumotlar olish haqqoniy bilimlar hosil qilishning ilmiy metodikasi Mutaxassislik fani va uni o‘qitish metodikasining metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi Mutaxassislik fani va uni o‘qitish metodikasi uchun zaruriy shartdir.

Mutaxassislik fani va uni o‘qitish metodikasining didaktik asosi uning ta’limtarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta’lim- tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to‘g‘ri bajarilishini ta’minlaydi. Mutaxassislik fani va uni o‘qitish metodikasi fanining didaktik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi. Mutaxassislik fani va uni o‘qitish metodikasi fanining pedagogik asosi. Zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda Mutaxassislik fani va uni o‘qitish metodikasi fanining umumiylarini tuzilmasi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uninng diagnostikasi, monitoringi, o‘quv-mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi ta’minlanadi.

Mutaxassislik fani va uni o‘qitish metodikasi fani hozirgi pedagogika fanining rivojlanishida katta o‘rin egallab bormoqda. Mutaxassislik fani va uni o‘qitish metodikasi fanining psixologik asosi psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida to‘g‘ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli





Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasi fanini o'rganishda psixologiya qonunlarini to'liq hisobga olishi talab etiladi. Ta'limninng har bir bosqichida tegishli yosh psixologiyasi xususiyatlariga moslashtirilgan usullar qo'llaniladi. Har bir bosqichda tegishli darajadagi bilim va tarbiya beriladi. Bu masalalarni o'rganish bilan pedagogik psixologiya fani shug'ullanadi. Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasi faninining fiziologik asosi talabalarning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб halqимиз билан бирга курамиз. "О'zbekiston" 2017.
2. Mirziyoyev. Sh. M. Erkin va farovon, демократик О'zbekiston давлатини биргаликда барпо этамиз. "О'zbekiston" 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi „Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to'g'risidagi Qarori
4. Bloom B.S. (ed) et al. A taxonomy of Educational Objectives: Handbook I: The Cognitive Domain. Harvow, 1956.
5. Muslimov.N.A,Sharipov.Sh.S. va b. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.Toshkent, 2009.
6. Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Qoysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. Toshkent.: 2014 y.  
7.<http://www.istedod.uz> <http://www.pedagog.uz/> Texnologiya fanini o'ziga xos xususiyatlari.
8. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. –T.: Tafakkur, 2021. -226 b.
9. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: Yangi nashr, 2016. -88 b.
10. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligidagi innovatsion jarayonlar. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: Yangi nashr, 2017. - 48 b